



Buyuk o‘zbek yo‘li

O‘ZBEKISTON VA AQSH:
O‘ZARO ISHONCH VA
MANFAATLAR UYG‘UNLIGI SARI

Dunyo tobora tez o‘zgarmoqda. Xalqaro munosabatlar shiddat bilan rivojlanib, geosiyosiy manzara kun sayin yangi mazmun kasb etmoqda. Bugungi global kurash maydonida har bir davlat o‘z yo‘lini belgilash, milliy manfaatlarini himoya qilish va kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam asos yaratish maqsadida tashqi siyosatda ochiq, pragmatik va muvozanatli bo‘lishga majbur. Shu jarayonda mamlakatimiz ham yangi qiyofasi bilan namoyon bo‘lib, xalqaro maydonda salohiyati va nufuzini oshirib bormoqda.

Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan, tarixan sivilizatsiyalar chorrahasi hisoblangan yurtimiz uchun bugun dunyo bilan barqaror hamkorlik yo‘lini izlash taqdiri ahamiyatga ega. Ana shunday muhim yo‘nalishlardan biri AQSH bilan o‘zaro ishonch va manfaatlar uyg‘unligiga asoslangan munosabatlardir. Bu munosabatlar nafaqat ikki davlat, balki

butun mintqa taqdiri uchun strategik ahamiyatga ega. Sababi, ikki tomonlama aloqalar qator yirik investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy loyihalarga asoslanib, barqaror iqtisodiy o‘shish va siyosiy barqarorlik uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Davomi 3-betda

Agrotarmoq

YER BILAN HISOBLASHDINGMI,
EL BILAN HAM HISOBLASH

Prezidentimizning “Tadbirkorlar kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, Bandixon tumanidagi “Omad” fermer xo‘jaligi rahbari Botir Rajabov “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi. Yaxshi xabar shamolday tez yuradi, deganlari rost ekan. Fermer bu xabarni tunda — g‘o‘za sug‘orib yurgan paytda eshitdi. Bir umr yer bilan “tillashib” kelgan emasmi, xursandligini dalalariga aytdi. Quvonchini ekinlar bilan baham ko‘rib, tani-da, dili-da yayradi! Endi bu zamonda oyog‘i yerdan uzilganlar emas, yerga oyoq tirab, ketmon chopganlarning ham yelkasiga quyosh tekkani, mehnat qilgan yurtida, elda aziz bo‘lishini aytib, paykal oraladi.

Botir Rajabov qishloqdagi oddiy mehnatkash oilada voyaga yetdi. Aytishicha, halollik va sabr-toqat kabi xislatlar unga ota-onasidan o‘tgan. Ana shu fazilatlar fermerning hayot yo‘lini belgilab berdi. Ehtimol, shuning uchun u umrini qishloq xo‘jaligi rivojiga bag‘ishlagandir.

Muzrabotdagi 7-maktabni tamomlagach, Samarqand qishloq xo‘jaligi institutida o‘qidi. Uzoq yillar Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi sohasida mehnat qildi. Yillar davomida to‘pagan tajribasi, egallagan bilimiga tayanib, 1996-yili fermer xo‘jaligini tuzdi.

Davomi 4-betda

Jarayon

“INSON” MARKAZLARI:
IJTIMOIY TENGLIK VA
IQTISODIY BARQARORLIK
KAFOLATI

So‘nggi yillardagi islohotlar zahirida inson huquq va manfaatlari, farovonligi va ijtimoiy himoyasini ta‘minlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. “Inson qadri uchun” tamoyili asosidagi ishlar har bir xonadonga kirib bormoqda. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari bu boradagi islohotlarning amaliy ifodasi bo‘layotir. Ular orqali ko‘makka muhtoj aholiga manzilli va tezkor xizmat ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Xususan, Nurota tumanidagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlari ham aholining og‘irini yengil qilishga bel bog‘lab, xalqimiz duosini olmoqda. 2025-yil boshida tumanda nafaqa oluvchi oilalar soni



3235 ta edi. Qilingan ishlar samarasi o‘laroq, 976 oila reyestrda chiqarildi. Ular o‘rniga haqiqiy muhtoj 408 oilaga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlandi.

Davomi 5-betda

Mulohaza

ADOLATLI TARBIYA

UMIDBAXSH ISLOHOTLAR ORTIDAGI
MA’NAVY MEZONLARGA BIR NAZAR

Bugungi fuqarolik jamiyatida insonni inson qiladigan ijtimoiy adolat negizi — ta‘lim, tarbiya, tibbiy xizmat, turar joy, mehnat va rag‘bat kabi ne‘matlardan hamma uchun erkin foydalanish imkoniyati mavjudligidir. Odamzod hamisha jamiyat hayotida muhim o‘ringa ega bo‘lishga intilib yashaydi, buning yomon joyi yo‘q. Axir kerakli bo‘lish hissi harakatga, rivojlanishga undaydi.



Fuqaroning huquq va burchlari mosligi ham fuqarolik jamiyatidagi adolatli munosabatlarni aniq izga soluvchi omildir. Bundan nafaqat jamiyat, balki shaxsning o‘zi ham katta manfaat ko‘radi. Ana shu moslik tufayliga inson boshqalardan hurmat va e‘tirof kutishga haqli.

Agar jinoyatni jazosiz qoldirmaydigan tizim ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish kuchiga ega bo‘lsa, qilingan mehnat va uning baholanishi o‘rtasidagi moslik iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi. Bugungi zamonaviy jamiyatni ana shunday moslik qoidasiz tasavvur etish mushkul. Bu moslik butun iqtisodiy tizimning poydevorini tashkil etadi.

Adolatga qaytsak. Adolatning o‘zi biror-bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar o‘rtasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash xususiyatiga ega.

Davomi 5-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI
TOMONIDAN BMT MINBARIDAN
ILGARI SURILGAN G‘OYALAR
VA YECHIMLAR KATTA
O‘ZGARISHLARGA YO‘L OCHADI
XORIIY EKSPERTLAR DAVLATIMIZ
RAHBARINING BMT BOSH
ASSAMBLEYASI 80-SESSIYASIDAGI
NUTQI HAQIDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-sentabr kuni BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida o‘z ishini boshlagan BMT Bosh Assambleyasi 80-yubiley sessiyasi umumsiyosiy munozaralarida nutq so‘zladi.



Davlatimiz rahbari o‘z ma‘ruzasida xalqaro hamjamiyatni O‘zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang amalga oshirayotgan ortga qaytmas izchil islohotlari bilan tanishtirdi. Undan ko‘zlangan bosh maqsad mamlakatimizda yashayotgan har bir oila, har bir fuqaroning hayotini tubdan o‘zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishga qaratilganini ta’kidladi.

Shuningdek, O‘zbekistonning ochiq va pragmatik siyosati, global va mintaqaviy xavfsizlik, barqaror rivojlanish bo‘yicha navbatdagi muhim taklif va tashabbuslari ilgari surildi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek,

yangi O‘zbekiston dunyoning barcha davlatlari bilan hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin hamkorlik tarafdori.

Xorijiy ekspertlar, tahlil doiralari vakillari O‘zbekiston Prezidentining BMT minbaridan turib bildirgan tashabbuslarini sharhlar ekan, ular barchani birdamlikka chorlash, tinchlikni saqlash, xalqaro miqyosdagi muammolarga hamjihatlikda adolatli yechimlar topish va xalqaro masalalarda muloqot platformalarini yaratishga qaratilgani bilan e‘tiborga molik, deya yuksak baholamoqda.

Davomi 2-betda

Akademik Ahmadali
Asqarovning 90 yilligigaIlm nuri bilan
TARIXNI YORITGAN OLIM

Domla ortiqcha ta‘rifga muhtoj emas. Uni minglab shogirdlari, ilmga aloqador hamkasb va safdoshlaridan tashqari oddiy odamlar ham yaxshi tanishadi, bilishadi, hurmat qilishadi. Ahmadali Asqarov desa, ko‘pchilik hushyor tortib qolishi ham haqiqat. Negaki oddiy, jaydari va samimiy kelbatida salobat ustun. So‘zi va amali uyg‘un. Cho‘rtkesarligi bor.

O‘qituvchining sehri va
tarbiyasi ortidan

Ahmadali Asqarovning ilmiy faoliyati O‘zbekiston tarixini yoritish, madaniy va etnogenetik ilmiy tadqiqotlarni

rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Uning ishlari o‘zbek ilmda arxeologiya va tarix shohlarining fundamental masalalarini tadqiq etish va kelajakdagi tadqiqotchilarga zamin yaratishga xizmat qilmoqda.

Davomi 6-betda



“Ahmadali Asqarov — arxeolog, tarixchi, ilmiy muhitda yuksak obro‘-e‘tibor qozongan va e‘tirofga sazovor bo‘lgan olim. Uning ilmiy asarlari, izlanishlari Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonning qadimgi madaniy va etnik tarixini o‘rganishda qadrlil manba bo‘lib kelmoqda. Serqirra olimning ilmiy qiziqishlari keng: arxeologiya, etnogenez, davlatchilikning shakllanishi, madaniy-moddiy merosni o‘rganish.



JAHON SAHNASIDA O‘Z SO‘ZINI AYTAYOTGAN YANGI O‘ZBEKISTON



Munosabat



Qahramon QURONBOYEV,
siyosiy fanlar doktori, professor

Albatta, har qanday ezgu maqsad va g‘oyalarning poydevori, tag zaminini bo‘ladi. Bugun O‘zbekiston jahon sahnasida o‘z so‘zini baralla aytayotgani, dunyoning yirik davlatlari rahbarlari, siyosatchilari va nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari e‘tirofini qozonayotgani davlatimiz rahbarining qat’iy siyosiy irodasi va yetakchilik fazilati ifodasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Shavkat Mirziyoyev Prezident sifatida ish boshlaganidayoq davlat va jamiyatning barcha sohalarini tanqidiy ko‘rib chiqib, real holatni hisobga olgan holda tubdan isloh qilish tashabbusini ilgari surgan edi. O‘tgan yillar davomida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan rivojlantirish borasida mashqaqatli va sharafli yo‘l bosib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari nutqida bunday dedi: **“So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kambag‘alilik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishdik. Bunga, avvalo, ta‘lim va ilm-fan sohasini o‘zgartirish, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalarini barpo etish, “yashil” energetika va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik biznesni har tomonlama rivojlantirish va natijada millionlab ish o‘rinlari yaratish orqali erishmoqdamiz”.**

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 80-yubiley sessiyasida so‘zlagan nutqi mamlakatimizdagi islohotlarning tadrijiyligi, yangi jamiyat barpo etish yo‘lidagi qadamlarimizning uzviyligi va ochiqlik siyosati bilan xalqaro maydonga dadil kirib borayotganimizdan dalolat.

Siyosatchi va amaliyotchi sifatidagi kuzatuvlarim dalolat beradiki, O‘zbekiston bugun o‘z qobig‘iga o‘ralashib qolgan, qaysidir davlatlarning tor manfaatlari yoki siyosiy ambitsiyalariga tayanib ish tutadigan davlat emas. Mamlakatimizning xalqimiz ishonchini qozongan, uzoqni ko‘ra oladigan dono siyosatchisi, dunyo tan olayotgan yetakchisi bor. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT minbarida ilgari surgan ko‘plab muhim tashabbuslari hamda AQSHda o‘tkazgan uchrashuvlari ham fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. O‘zbekistonda Jahon professional ta‘lim sammitini va Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti masalalariga bag‘ishlangan xalqaro forum o‘tkazish, Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirish,

Yana bir muhim jihat, 2017-yilning 30-iyuni yurtimiz yoshlari xotirasida misli ko‘rilmagan kun sifatida abadiy muhrlanib qoladi. Shu kuni mamlakatimiz tarixida birinchi marta davlatimiz rahbari minglab yoshlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qilib, ushbu sanani yurtimizda Yoshlar kuni sifatida nishonlash taklifini ilgari surgandi. Yoshlarning dardu tashvishlari, orzu-intilishlari, maqsad va rejalarni zalda turib bevosita tingladi. Uzoqqa mo‘ljallangan yoshlar dasturini bayon qildi.

Prezident va yoshlar muloqoti o‘shandan buyon mamlakatimizda an‘anaga aylandi. Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston yoshlar bilan ishlash borasida jahonda boshqalarga namuna bo‘ladigan katta tajriba to‘pladi. Shu ma‘noda,



Shavkat Mirziyoyev Prezident sifatida ish boshlaganidayoq davlat va jamiyatning barcha sohalarini tanqidiy ko‘rib chiqib, real holatni hisobga olgan holda tubdan isloh qilish tashabbusini ilgari surgan edi. O‘tgan yillar davomida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan rivojlantirish borasida mashqaqatli va sharafli yo‘l bosib o‘tildi.

sanoatda “yashil” texnologiyalar mintaqaviy xabini yaratish, “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta‘sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish kabi tashabbuslar shular jumlasidandir.

Yigirma yildan ko‘proq respublika yoshlar tashkilotlarida mas‘ul lavozimlarda ishlagan inson sifatida meni dunyo yigit-qizlarining tinchlik yo‘lidagi intilishlarini birlashtirish g‘oyasi, ayniqsa, quvontirdi. Negaki O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosati borasida ulkan ishlar qilindi.

Xususan, Yoshlar ishlari agentligi va “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi tashkil etildi. “Yoshlar daftrari” joriy qilindi. So‘nggi 7-8 yilda yoshlarimizning oliy ta‘lim bilan qamrovi 9 foizdan 42 foizga yetdi. Ochig‘i, bu boradagi qilingan ishlarni sanab tugatish qiyin.

bunday tashabbusning ilgari surilishi g‘oyatda o‘rinlidir.

Oddiy bir o‘zbek farzandi sifatida g‘ururimga g‘urur qo‘shgan, qalbinga faxr-iftixor baxsh etgan voqea, albatta, Prezidentimizning ona tilimizda nutq so‘zlagani bo‘ldi. Biz minbarda nafaqat katta siyosatchi va rahbarini, balki xalqini, millatini, ona tilini sevadigan katta qalb egasini ham ko‘rdik.

Mamlakatimiz yetakchisining ushbu pozitsiyasi, shubhasiz, o‘zbek tilining xalqaro darajadagi maqomini ko‘tarishga ulkan hissa qo‘shdi, O‘zbekistonning xalqaro munosabatlarda o‘z ovozi va o‘rni borligini yana bir bor ko‘rsatdi.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!**



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TOMONIDAN BMT MINBARIDAN ILGARI SURILGAN G‘OYALAR VA YECHIMLAR KATTA O‘ZGARISHLARGA YO‘L OCHADI XORIJYIY EKSPERTLAR DAVLATIMIZ RAHBARINING BMT BOSH ASSAMBLEYASI 80-SESSIYASIDAGI NUTQI HAQIDA

Boshlanishi 1-betda

Yusuf SARINAY,
Turkiya Savdo-sanoat palatalari
universiteti rektori, professor:



— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasidagi nutqi bir rahbarning islohotlari, g‘oyalari va qarorlari global kun tartibiga qanday ta‘sir qilishi mumkinligiga yorqin misol bo‘ldi. Uning tashabbuslari dunyo, mintaqaviy va mahalliy muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, inson qaysi davlat vakili bo‘lishidan qat’i nazar, uning sog‘lig‘i, farovonligi va huquqlari diqqat markazida bo‘lib qolmoqda. Ushbu g‘oyalarni chuqur tinchlik, insonparvarlik va butun insoniyatga amaliy foyda keltirish istagini aks ettiradi.

Men O‘zbekistonga bir necha bor kelish va Prezident Shavkat Mirziyoyevning islohot kursi tufayli yuz berayotgan o‘zgarishlarni shaxsan kuzatish sharafiga muyassar bo‘ldim. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat iqtisodiyot va ijtimoiy sohada, balki ta‘lim tizimida ham seziladi. Bu O‘zbekistondagi islohotlar tizimli va barqaror ekanidan dalolat beradi.

Ushbu qadamlar yangi Markaziy Osiyo — chegaralar masalalari hal qilinadigan, qo‘shnchilik munosabatlari mustahkamlanadigan va o‘zaro yordam mexanizmlari qurilgan xavfsiz, do‘stona mintqa konsepsiyasi bilan tabiiy ravishda to‘ldiriladi. Mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotining o‘zgarishi ko‘rsatadiki, qo‘shnilarga g‘amxo‘rlik qilish va tinch-totuv yashash deklaratsiya emas, balki O‘zbekiston Prezidentining tinchlik va strategik tafakkurini namoyish etadigan amaliy yo‘nalishdir.

BMT Bosh Assambleyasi doirasida O‘zbekiston global muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynay oladigan mamlakat maqomini ishonch bilan tasdiqladi. O‘zbekiston Prezidenti

ilgari surgan g‘oyalarni yechimlar katta o‘zgarishlarga yo‘l ochadi. Ushbu yondashuv Prezident Shavkat Mirziyoyevning odamlarni umumiy maqsadlar atrofida birlashtirish va dunyo hamjamiyatini insoniyat manfaati uchun harakat qilishga ilhomlantirishning noyob qobiliyatidan dalolat beradi.

Umuman olganda, O‘zbekiston Prezidentining islohotlari va ilgari surayotgan g‘oya hamda tashabbuslari uning strategik tafakkur egasi, xalq uchun g‘amxo‘r yetakchi ekani isbotidir. Shuningdek, uning yondashuvi milliy manfaatlar global mas‘uliyat bilan uzviy bog‘langan yetakchilikning yangi standartini o‘rnatadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z faoliyati bilan g‘oyalarni amaliy yechimga, islohotlarni esa butun insoniyat taraqqiyotiga aylantira oladigan inson va haqiqiy rahbar ekanini namoyon etmoqda.

Sayyid Xolid Amir JAFFRI,
Janubiy Osiyo va xalqaro tadqiqotlar
markazi prezidenti:



— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 80-yubiley sessiyasidagi nutqi ham mintaqaviy, ham global kun tartibi uchun muhim ahamiyatga ega. Uning nutqi strategik kengligi, milliy ustuvorliklar va global muammolarni uyg‘unligi bilan ajralib turdi.

Birinchidan, asosiy e‘tibor O‘zbekistonda ichki islohotlarni davom ettirish va inson kapitalini mustahkamlashga qaratildi. Kambag‘allikni qisqartirish, ta‘lim qamrovini kengaytirish va “yashil” energiyani rivojlantirish bo‘yicha erishilgan ajoyib yutuqlar ichki transformatsiyalar faol xalqaro siyosat uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Prezidentining yangi Markaziy Osiyoni yaratish bo‘yicha



tashabbuslari alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Yopiq chegaralar va nizolar davri o‘tmishda qolib ketgani ta‘kidlangan bugungi voqelikni aks ettiradi. Mintaqa haqiqatan xalqaro uchun bu Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi aylanib bormoqda va O‘zbekiston bu jarayonda yetakchi va harakatlantiruvchi rol o‘ynamoqda. Uchinchidan, Janubiy Osiyo, xususan, Pokiston uchun bevosita ahamiyat kasb etadigan tashabbuslar bildirildi. Bu Afg‘oniston orqali xalqaro transport va energetika yo‘laklarini rivojlantirish taklifini o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv Pokistonning strategik manfaatlariga to‘liq mos keladi, u ham o‘zining geografik joylashuvini mintaqalararo aloqaning asosiy bo‘g‘iniga aylantirishga intiladi. Toshkent va Islomobodning bunday loyihalar bo‘yicha hamkorligi Markaziy va Janubiy Osiyoning iqtisodiy integratsiyasini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin.

To‘rtinchidan, iqlim o‘zgarishi, suv inqirozi, iqlim migratsiyasiga qaratilayotgan e‘tibor tahsinga loyiq. Orol fojiasiga duch kelgan O‘zbekiston haqli ravishda global ekologik platformalar yaratish tashabbusi bilan chiqmoqda. Bu tashabbuslar suv resurslari va demografik barqarorlik masalalari bundan kam dolzarb bo‘lmagan Janubiy Osiyo uchun ham muhimdir.

Beshinchidan, ta‘lim, sun‘iy intellekt va yoshlar diplomatiyasi bo‘yicha xalqaro platformalarni yaratish bo‘yicha takliflar hamkorlikning global madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli istiqbolni aks ettiradi. Aholining salmoqli qismini yoshlar tashkil etuvchi Pokiston ham bunday loyihalarda faol ishtirok etishi mumkin.

Xulosa o‘rinda ishonch bilan ayta olamanki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT

Bosh Assambleyasi 80-sessiyasidagi nutqi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatining mas‘uliyatli va tashabbuskor a‘zosi sifatidagi o‘rni haqidagi asosiy bayonot bo‘ldi. Pokiston uchun bu Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi mintaqaviy bog‘liqlik konsepsiyasini ilgari surish kontekstida ayniqsa muhimdir. Ikki davlatning tranzit, energetika, atrof-muhit va yoshlar siyosatidagi manfaatlari yaqinlashishi strategik sheriklikni chuqurlashtirish uchun keng istiqbollarni ochadi.

Sheradil BAQTIGULOV,
Qirg‘iziston Jahon siyosati instituti
direktori:



— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan 80-yubiley sessiyasidagi nutqida, shuningdek, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, xorijiy davlatlar va hukumatlar rahbarlari, xalqaro moliya

institutlari va yirik kompaniyalar rahbarlari bilan uchrashuvlari chog‘ida ilgari surilgan takliflar adolatga intilish va o‘z mamlakati hamda boshqa xalqlar manfaatlariga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston rahbarining tashabbus va takliflari Markaziy Osiyo uchun muhim ahamiyatga ega. Bu tashabbuslar o‘z mamlakati va mintaqasi manfaatlarini ilgari surish bilan uyg‘unlashgani bilan ahamiyatlidir.

Fuqaro aviatsiyasi, sog‘liqni saqlash, tog‘-kon sanoati, moliya, innovatsiyalar, kimyo va farmatsevtika sanoatida umumiy qiymati 100 milliard dollardan ortiq bo‘lgan shartnomalar va istiqbolli loyihalar portfli shakllantirildi. Bu O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatidagi haqiqiy yutuqni ifodalaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar forumlarida Markaziy Osiyo kun tartibini izchil targ‘ib etib kelayotganini ham alohida ta‘kidlash joiz.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va mintaqamizning geosiyosiy mavqeini oshirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Yaqin kunlarda Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tishini hisobga olsak, bu muhim voqeadir.

Ilgar VELIZADE,
siyosiy ekspert (Ozarbayjon):

— Bu O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasida birinchi marta chiqishi emas. Bu davlatimiz rahbarining BMTdagi to‘rtinchi chiqishi. O‘zbekiston rahbari har safar xalqaro hamjamiyatga murojaat qilar ekan, barqarorlikni mustahkamlash va mintaqani rivojlantirish bo‘yicha amaliy qadamlarga qaratilgan tashabbuslarni ilgari suradi. Uning takliflari an‘anaviy tarzda Markaziy Osiyo aholisining turmush darajasini oshirish, mintaqamamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, transchegaraviy resurslarni birgalikda boshqarishga qaratilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, suv energetikasi salohiyatidan samarali foydalanish, zamonaviy muammolarni birgalikda hal etish muhimligini ta‘kidlaydi.

O‘zbekiston Prezidenti bu gal ham Markaziy Osiyo xavfsizlik, taraqqiyot va xalqaro hamkorlik chambarchas bog‘langan makon ekanini yana bir bor qayd etdi. Uning murojaatida barqaror rivojlanish, global tahdidlar va ekologik xavf-xatarlarga qarshi

Ushbu nufuzli tadbir doirasida O‘zbekiston dunyo sahnida yana bir bor e‘tirof etildi. Roppa-rosa sakkiz yil oldin e‘lon qilingan taraqqiyot yo‘limiz doirasida amalga oshirilgan islohotlar BMT bosh qarorgohida jahon uzra taqdimot qilindi. Eng yuksak, xalqaro siyosiy platformada yangi tarix, ming yillik rivojlanish maqsadlariga hamohang qisqa muddatdagi samarali strategiya natijasi — “Yangi O‘zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo‘li” kitobining taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Unda davlat boshqaruvi islohoti, adolat tizimi, yangi ta‘lim, tibbiyot, raqamli iqtisodiyot va eng asosiysi, islohotlar markazida inson qadri turgani bayon etilgan.



Xalqaro ekspertlar fikricha, O‘zbekiston islohotlari — siyosiy jasorat, strategik fikr va inson qadriga qaratilgan siyosat uyg‘unligi. Asosiysi, mazkur taqdimot yurtimizdagi islohotlar, tashabbuslar nafaqat milliy, balki xalqaro jarayonlar uchun ham muhim ekanini yana bir bor isbotladi. Bu dunyo tan olayotgan yangi O‘zbekiston, Prezidentimizning siyosiy irodasi va eng muhimi, xalq bilan yozilayotgan yangi tarix.

Bulaming barchasi bejiz emas. Zero, bugungi murakkab sharoitlarda, miqyosiga ko‘ra misli ko‘rilmagan qurolli ziddiyatlar hamda xalqaro tinchlik va barqarorlikka oshib borayotgan tahdid sahnida tinchlik va xavfsizlikni, inson huquqlarini himoya qilish va barqaror taraqqiyotni ta‘minlash yo‘lida a‘zo davlatlarning sa‘y-harakatlarini birlashtirishni maqsad qilgan universal xalqaro tuzilma sifatida BMTning roli va mas‘uliyati ortib bormoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, yangi O‘zbekiston dunyoning barcha mamlakatlari bilan manfaatli hamkorlik qilish va BMT hamda uning institutlari bilan amaliy muloqotga hamisha tayyor.

kurash, yangi chaqiriqlar qarshisida xalqaro hamjamiyat sa‘y-harakatlarini muvofiqlashtirish zarurati bilan bog‘liq jihatlar o‘rin olgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy kun tartibiga alohida urg‘u berib, davlatlar uchun “hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyiliga asoslangan ixtiyoriy majburiyatlarining xalqaro kodeksini yaratishni taklif qildi. Ushbu tashabbus inqirozli vaziyatlarda milliy xulq-atvorning universal qoidalarini ishlab chiqish va hayotiy resurslardan noto‘g‘ri foydalanish xavfini minimallashtirishga qaratilgan.

O‘zbekiston yetakchisi tomonidan e‘lon qilingan yangi tashabbuslar, jumladan, kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizga kamaytirish, maktabgacha ta‘lim bilan



qamrovni 27 foizdan 78 foizga, oliy ma‘lumotli aholi ulushini 9 foizdan 4 foizga oshirish kabi salmoqli muvaffaqiyatlar yuksak tahsinga sazovor. Menimcha, O‘zbekiston rasman rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiritilgan bo‘lsa-da, ichki rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha u allaqachon ko‘plab rivojlangan davlatlarnikiga mos keladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida inson manfaatlari, qadr-qimmatini va farovonligiga alohida e‘tibor qaratilayotgan Yangi O‘zbekiston konsepsiyasiga ham alohida to‘xtalib o‘tdi. Mamlakat inson, uning qadr-qimmatini, huquqlari, sifatlari ta‘lim, tibbiy xizmatdan foydalanish, adolatli sudlovni ta‘minlash asosiy qadriyat bo‘lgan davlatga aylanayotgani alohida ta‘kidlandi. Bu shunchaki shior emas, balki “davlat shaxsdan ustun” tamoyilidan “davlat shaxs manfaati yo‘lida” tamoyiliga yo‘natirilgan davlat siyosatining modelidir.

Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu cheklangan resurslar bilan ham barqaror taraqqiyotga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Buning uchun islohotlar va ochiqlik, fuqarolik jamiyati bilan yaqin muloqotni yo‘lga qo‘yish, yangi chaqiriqlarga moslashishga tayyor bo‘lish uchun siyosiy iroda zarur. Buni bugun Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi O‘zbekiston yaqqol namoyon etmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMTga yangi murojaati rasmiy Toshkentning mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy tashabbuslarni ilgari surish bo‘yicha izchil diplomatik sa‘y-harakatlarining davomi bo‘ldi.

“Dunyo” AA



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
qo‘mita raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan asrning 90-yillari O‘zbekiston uchun bozor iqtisodiyotiga o‘tish va milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash davri bo‘ldi. AQSH bu jarayonda moliyaviy ko‘mak, texnik yordam va xalqaro tashkilotlarda qo‘llab-quvvatlash orqali muhim o‘rin tutdi. Biroq o‘sha yillardagi hamkorlik ko‘proq siyosiy va xavfsizlik sohalarida ifodalaniib, iqtisodiy sheriklik keng ko‘lamda namoyon bo‘la olmadi.

2016-yildan keyingi yangi O‘zbekiston islohotlari ikki tomonlama munosabatlarda mulqo yangi sahifa ochishga imkon berdi. Prezidentimizning ochiq va pragmatik tashqi siyosati, islohotlar yo‘lidagi qat‘iy qadamlari AQSH bilan hamkorlikka sifat jihatidan yangi ruh bag‘ishladi.

2017-2024-yillardagi O‘zbekiston — AQSH munosabatlarini tahlil etar ekanmiz, iqtisodiy hamkorlik ustuvor yo‘nalishga aylanганиni va institutsional hamkorlik kengayganiga guvoh bo‘lamiz. Ilgari siyosiy va xavfsizlik masalalari asosiy o‘rin tutgan bo‘lsa, bugungi kunda biznes va investitsiya ikki davlat aloqalarining markaziga chiqdi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, “Citigroup”, “NASDAQ”, “Franklin Templeton”, “BlackRock” kabi global moliyaviy institutlar bilan hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi.

Har qanday iqtisodiy kelishuv yoki investitsiya ortida siyosiy ishonch turadi. O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi oliy siyosiy muloqot so‘nggi yillarda butunlay yangi bosqichga ko‘tarildi. Davlatimiz rahbarining AQSHga tashriflari, Nyu-York shahridagi uchrashuvlari nafaqat iqtisodiy shartnomalar, balki siyosiy ishonch poydevorini ham yaratdi. Vashington rasmiylari O‘zbekistonn Markaziy Osiyoda barqarorlik va islohotlar namunasi sifatida ko‘ra boshladi. Bu nafaqat ikki davlat aloqalari, balki butun mintaqadagi jarayonlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu tariqa munosabatlar rasmiy ravishda “strategik sheriklik” maqomiga ko‘tarildi. Bu maqom nafaqat iqtisodiy hamkorlik, balki siyosiy, xavfsizlik, gumanitar va madaniy sohalarda ham keng qamrovli munosabatlarni anglatadi.

Sanoat va texnologiya sohalarida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. “Boeing”, “Air Products”, “Traxys”, “McKinsey”, “FLSmidth” kabi kompaniyalar bilan shartnomalar imzolaniib, mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega yo‘nalishlarda hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Shu jihatdan aytilish mumkinki, o‘zaro munosabatlar bugun nafaqat amaliy mazmun, balki strategik hamkorlik sifatini olgan.

Har qanday tashqi siyosiy yo‘nalish, avvalo, milliy manfaatlar xizmat qilishi zarur. O‘zbekiston uchun AQSH bilan munosabatlarning kuchayishi qator muhim ustuvorliklarni ta‘minlaydi. Xususan, iqtisodiy diversifikatsiya yo‘nalishida AQSH bilan hamkorlik yurtimizning tashqi iqtisodiy aloqalaridagi geografyaning kengaytiradi, Yevropaga yo‘nalgan eksport bilan bir qatorda Amerika bozoriga ham keng yo‘l ochadi. Innovatsion salohiyat yo‘nalishida esa AQSHning texnologiya va bilimlar sohasidagi yetakchiligi iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim.

Shuningdek, xalqaro maydonda qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida AQSHning xalqaro tashkilotlardagi ta‘siri O‘zbekiston manfaatlarini ilgari surishda muhim ahamiyatga ega. Mintaqaviy barqarorlik yo‘nalishida Markaziy Osiyoda xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash, chegara xavfsizligi masalalarida AQSH bilan hamkorlik mintaqa barqarorligiga xizmat qiladi.

Shuning uchun O‘zbekiston va AQSH munosabatlari tarixiy jihatdan qisqa davrni qamrab olgan bo‘lsa-da, uning istiqbolari ulkan. Bu munosabatlar mamlakatimiz uchun strategik ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Yangi O‘zbekiston davrida tashqi siyosatdagi eng muhim o‘zgarishlardan biri oliy siyosiy muloqotning mulqo yangi bosqichga ko‘tarilishi bo‘ldi. Agar ilgariqi yillarda ikki davlat munosabatlari ko‘proq ayrim sohalaridagi hamkorlik bilan cheklangan bo‘lsa, bugungi kunda davlat rahbarlari darajasidagi uchrashuvlar nafaqat ikki tomonlama, balki mintaqaviy va global ahamiyatga ega bo‘lgan strategik masalalarni qamrab olmoqda.

O‘zbekiston va AQSH Prezidentlari o‘rtasidagi muloqotlar ikki davlat aloqalarining siyosiy poydevorini yaratdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va AQSH Prezidenti Donald Tramp o‘rtasidagi muloqotlar ikki davlat munosabatlarga yangi ruh bag‘ishladi.

Ayniqsa, Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan so‘nggi muloqotda iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va uzoq muddatli istiqbolga qaratilgan yirik loyihalar portfelini shakllantirish masalalari kelishib olingani muhim voqea sifatida tarixga kirdi.

Bunda alohida e‘tibor berish kerakki, O‘zbekiston AQSH uchun nafaqat mintaqaviy sherik, balki Markaziy Osiyoda barqarorlik va islohotlar namunasi sifatida ko‘rilmogqda.

Hozirgi paytda O‘zbekiston — AQSH strategik sherikligi quyidagi asosiy ustunlarga tayanadi:

— iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklik.

Yirik korporatsiyalar bilan shartnomalar, moliya bozorlari va bank tizimini rivojlantirishdagi hamkorlik;

— siyosiy ishonch. Davlat rahbarlari darajasidagi ochiq muloqotlar va strategik yo‘nalishlar bo‘yicha kelishuvlar;



Janob Guterrish Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslarini yuqori baholar ekan, ularning global ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. Xususan, BMT tizimini isloh qilish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan adolatli foydalanish, ma’rifatparvar islom g’oyalarini rivojlantirish, yoshlar siyosatini global miqyosda qo‘llab-quvvatlash masalalari g’oyat dolzarb ekanini qayd etdi.

— xavfsizlik sohasi. Terrorizmga qarshi kurash, chegara xavfsizligi, noqonuniy migratsiyaga qarshi choralar;

— mintaqaviy barqarorlik. Afg‘oniston muammosi, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlariga ko‘mak;

— gumanitar sohalar. Ta‘lim, ilm-fan, sog‘liqni saqlash va madaniy aloqalar.

Shu jihatdan qaraganda, strategik sheriklik nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy-ma’naviy mazmunga ham ega.

Siyosiy muloqotning kuchayishi iqtisodiy hamkorlik uchun asosiy shart-sharoitlarni yaratmoqda. Xalqaro investitsiya muhitida siyosiy barqarorlik va ishonch omillari birinchi darajali ahamiyatga ega. AQSH kompaniyalari va moliya institutlari mamlakatimizga yirik sarmoya kiritishga tayyor ekanini bildirgani ham ana shu ishonch muhiti natijasidir.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi siyosiy muloqot kuchayishi shuni ham anglatadiki, mamlakatimiz tashqi siyosatda muvozanatli va pragmatik yo‘l tutmoqda. Bir tarafdian, Markaziy Osiyodagi qo‘shnilar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ikkinchi tarafdian, AQSH kabi global davlat bilan strategik sheriklikni rivojlantirish. Bu milliy manfaatlarini ta‘minlashda eng to‘g‘ri yo‘l.

Nyu-York shahrida AQSHning yetakchi kompaniyalari va moliyaviy institutlari rahbarlari ishtirokidagi davra subhrti siyosiy muloqotning amaldagi ifodasi bo‘ldi. Bu tadbirda “Franklin Templeton”, “Citigroup”, “BNY Mellon”, “NASDAQ”, “Boeing”, “MasterCard”, “Visa”, “General Motors”, “Nvidia”, “Oppenheimer”, “Jefferies”, “Air Products”, “Traxys”, “FLSmidth”, “Cleveland Clinic”, “Cargill” kabi kompaniyalar qatnashdi. Bu nafaqat iqtisodiy ahamiyatga ega voqea, balki siyosiy muloqotning samarali poydevori



“Prezidentimiz nutqi nafaqat davlat rahbarining pozitsiyasi, balki butun xalqimizning adolat, tinchlik va taraqqiyot yo‘lidagi umumiy irodasini ifoda etdi. Bugungi kunda yangi O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi ochiqlik va pragmatizm tamoyillari xalq diplomatiyasi, parlament faoliyati va jamoatchilik muloqotida ham o‘z ifodasini topishi zarur.

ekanini ko‘rsatadi. Chunki biznes va siyosat bir-biridan ajralmas jarayondir.

Siyosiy muloqotning samaradorligi haqida gapirar ekanmiz, bir jihatni ta’kidlash joiz: tashqi siyosatda doimiy muloqot va ishonchni shakllantirmasdan turib, iqtisodiy sheriklikni mustahkamlash mumkin emas. Shu jihatdan, AQSH bilan aloqalarda oliy siyosiy muloqotning rivojlanishi O‘zbekiston uchun tarixiy ahamiyatga egadir.

Ushbu muloqotlar orqali mamlakatimiz qator strategik yo‘nalishlarda o‘z manfaatlarini ilgari surish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Birinchiidan, AQSHning global siyosiy va iqtisodiy ta’siri orqali O‘zbekiston xalqaro maydonda o‘z nufuzini oshirmogqda. Ikkinchiidan, ichki

to‘g‘ri keldi, ya’ni O‘zbekistondan AQSHga yuborilgan mahsulot hajmi ikki barobar oshdi. Bu ko‘rsatkich mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarining Amerika bozoriga kirib borishi barqaror ekanini ko‘rsatadi.

Eksport tarkibiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, unda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, to‘qimachilik va gilam mahsulotlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu esa ikki jihatdan muhim. Birinchisi, O‘zbekistonning sanoat va agrar sektori mahsulotlari AQSH bozorida raqobatbardosh ekani isbotlanmogqda. Ikkinchisi esa eksport geografiyasi diversifikatsiya qilinib, Yevropa va Rossiya bozorlari bilan birga, AQSH yo‘nalishi ham mustahkamlanmogqda.

AQSH dunyodagi eng yirik sarmoyador mamlakatlardan biri. Uning moliyaviy salohiyatidan samarali foydalanish mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun katta imkoniyatlar yaratadi. So‘nggi yillarda qator transmilliy korporatsiyalar bilan imzolangan shartnomalar shuning yaqqol dalilidir.

“Boeing” bilan aviasanoatdagi uzoq muddatli hamkorlik, yangi samolyotlar yetkazib berish va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kelishuvlar imzolandi. Bu nafaqat fuqaro aviatsiyasini rivojlantiradi, balki turizm, transport va logistika sohalarida ham ulkan imkoniyatlar yaratadi.

“Air Products” kompaniyasi sanoat gazlari ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida yirik loyihalarni amalga oshirmogqda. Buxoroda gaz-kimyo majmuasini qurish, ekologik toza aviatsiya yoqilg‘isi ishlab chiqarish, “Navoiyazot”da suyuq karbonat anhidrid ishlab chiqarish kabi loyihalar mamlakatimizda sanoat diversifikatsiyasiga xizmat qiladi.

“Traxys” bilan 1 milliard dollarlik istiqbolli



loyihalar portfelini shakllantirildi. Bu muhim mineralar qazib olish va qayta ishlash sohasidagi hamkorlikdirdi. Xususan, energiya o‘tish jarayonida zarur bo‘lgan xomashyo resurslarini qayta ishlash va yetkazib berish zanjirlari shakllantirilmogqda.

“McKinsey” konsalting kompaniyasi bilan tog‘-ko‘n sanoatini transformatsiya qilish strategiyasi ishlab chiqildi. Bu strategiya kelgusi yillarda mamlakatimiz resurslaridan samarali foydalanish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga zamin yaratadi.

“FLSmidth” bilan mis sanoatini rivojlantirish va uskunalar ishlab chiqarish sohasida qo‘shma korxona tashkil etildi. “Go Green Partners” bilan esa “yashil” energetika sohasida muhim mineralarni qazib olish va qayta ishlash loyihalari amalga oshirilmogqda.

Mazkur yirik loyihalarining umumiy qiymati 20 milliard dollardan oshib ketdi.

Bu esa O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun tarixiy ko‘rsatkich, mamlakatimizga AQSH sarmoyasining yirik oqimlari jalb etilayotganini ko‘rsatadi.

Ikki davlat iqtisodiy hamkorligining yana bir muhim yo‘nalishi moliya bozoridir. AQSHning global moliya institutlari bilan hamkorlik yurtimizda iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega. “Citigroup” bilan hamkorlik orqali mamlakatimiz banklari va davlat korxonalari obligatsiyalari xalqaro fond bozorlarida muvaffaqiyatli joylashtirildi. Toshkentda “Citigroup” ofisi ochildi.

“Franklin Templeton” bilan qo‘shma investitsiya fondi tashkil etildi. Bu fond orqali davlat korxonalari transformatsiya qilish va ularning aksiyalarini global fond bozorlarida joylashtirish ishlari olib borilmogqda.

“NASDAQ” bilan Toshkent fond birjasini modernizatsiya qilish, davlat obligatsiyalari savdosi uchun infratuzilma yaratish masalalari ko‘rib chiqildi. “BlackRock” bilan esa energetika, transport va suv infratuzilmasida strategik sheriklik masalalari muhokama qilindi.

“BNY Mellon”, “Jefferies”, “Oppenheimer” kabi yirik moliya korporatsiyalari bilan yevroobligatsiyalar chiqarish, xususiy sektorni moliyalashtirish, IPO jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha kelishuvlar imzolandi. Bu jarayonlar moliya bozori shaffofligini ta‘minlagina qolmay, O‘zbekistonn xalqaro sarmoyadorlar uchun yanada jozibador qiladi.

Mamlakatimiz uchun AQSH bozori katta istiqbolga ega. Bugungi kunda qator mahsulotlarimiz Amerika iste‘molchilari orasida talabgir bo‘lmogqda. Bruklinda ochilgan “Toshkent supermarketlari” tarmog‘i, Nyu-York va Filadelfiyada tashkil etilgan “Samarqand gilamlari” savdo uylari, “Texworld New York City” ko‘rgazmasidagi “Made in Uzbekistan” pavilyoni — bularning barchasi Amerika bozoridagi mavqeimiz tobora mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Iqtisodchi sifatida aytishim mumkinki, O‘zbekiston — AQSH iqtisodiy munosabatlari hozirgi bosqichda strategik ahamiyat kasb etmogqda. Yirik sarmoyalar, moliya bozoridagi hamkorlik va eksport imkoniyatlari nafaqat

rivojlanish maqsadlarini uyg‘unlashtirishga qaratildi.

Janob Guterrish Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslarini yuqori baholar ekan, ularning global ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. Xususan, BMT tizimini isloh qilish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan adolatli foydalanish, ma’rifatparvar islom g’oyalarini rivojlantirish, yoshlar siyosatini global miqyosda qo‘llab-quvvatlash masalalari g’oyat dolzarb ekanini qayd etdi.

Tahliliy nuqtayi nazardan, ushbu muloqot “global muammolarga milliy yechimlar” modelining ifodasi bo‘ldi. Ya’ni O‘zbekistonning ichki islohotlari BMT maqsadlari bilan uyg‘un bo‘lib, mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatning ishonchli hamkori sifatida namoyon bo‘ldi.

AQSH Prezidenti Donald Tramp bilan uchrashuv esa, asosan, ikki tomonlama munosabatlarning amaliy natijalariga qaratildi. Muzokaralar jarayonida iqtisodiy modernizatsiya, sarmoyalarni jalb qilish va yangi ish o‘rinlari yaratish masalalari ustuvor bo‘ldi.

“Tramp O‘zbekistondagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlar ekan, yurtimizning ochiqlik siyosati va iqtisodiy transformatsiyasini ‘orqaga qaytmas jarayon’ sifatida e’tirof etdi.

Alohida qayd etish kerakki, davlatimiz rahbarining yubiley sessiyadagi nutqi O‘zbekiston tashqi siyosiy strategiyasining barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan kompleks dastur sifatida namoyon bo‘ldi.

Prezidentimiz nutqini diqqat bilan eshitir ekanman, yuragimni iftixor va mas’uliyat hissi qamrab oldi. Chunki bu nutqda nafaqat yurtimiz, balki butun mintaqamizning istiqbolli, global taraqqiyot yo‘lidagi ustuvor maqsadlari va umumbashariy hamjihatlik g’oyalari o‘z ifodasini topdi.

Avvalo, davlatimiz rahbari jahon hamjamiyati oldida tinchlik, barqarorlik va adolatni ta‘minlash yo‘lida qat‘iy pozitsiyani yana bir bor namoyon etdi. Ta’kidlanganidek, xalqaro nizolar, ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar, iqlim o‘zgarishi kabi muammolar nafaqat ayrim davlatlar, balki butun insoniyat taqdiriga daxldor. Shu bois, BMT minbaridan bildirilgan takliflar zamonaviy geosiyosiy voqealarning chuqur tahlili va o‘ta dolzarb yechimdir.

Shu bilan birga, nutqda mamlakatimizdagi islohotlar, kambag‘allikni qisqartirish, ta’lim va ilm-fanga ustuvor ahamiyat berish, gender tenglik va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish kabi masalalar ham alohida urg‘u bilan tilga olindi. Bu esa yangi O‘zbekistonning global maydonda ham adolatli va taraqqiyotparvar davlat sifatida yuksalib borayotganidan dalolatdir.

Mintaqaviy hamjihatlikka oid fikrlar, ya’ni Markaziy Osiyoni yaqin qo‘shnichilik va sheriklik makoni sifatida shakllantirish g‘oyasi alohida e’tiborga molik. Chunki bu yo‘lda so‘nggi yillarda qo‘lga kiritilgan natijalar haqiqatan tarixiy ahamiyatga ega. Yopiq chegaralar davri tarixda qolgan, savdo va investitsiyalar hajmi bir necha barobar o‘sgani, qo‘shma loyihalarining ko‘payishi xalqlarimizning kelajak farovonligi uchun xizmat qiladigan amaliy natijalardir.

Shuningdek, nutqda Afg‘onistonda barqarorlikni ta‘minlash, Falastin — Isroil muammosini “ikki xalq — ikki davlat” tamoyili asosida hal etish, Ukraina atrofidagi vaziyatni diplomatik yo‘llar tartibga solish kabi tashabbuslar O‘zbekiston tashqi siyosatining muvozanatli va tinchlikparvar yo‘nalishini namoyon etdi.

Prezidentimiz tomonidan iqlim o‘zgarishi va suv resurslari taqchilligiga oid bildirilgan takliflar esa faqat mamlakatimiz uchun emas, balki butun jahon hamjamiyati uchun hayotiy ahamiyatga ega. Xususan, Orolbo‘yida amalga oshirilayotgan ishlar, “Yashil makon” dasturi, suv inqirozini hal qilish uchun global forum tashkil etish tashabbusi bugungi kunning eng dolzarb vazifalardir.

Prezidentimiz nutqi nafaqat davlat rahbariningpozitsiyasi, balkibutunxalqimizning adolat, tinchlik va taraqqiyot yo‘lidagi umumiy irodasini ifoda etdi. Bugungi kunda yangi O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi ochiqlik va pragmatizm tamoyillari xalq diplomatiyasi, parlament faoliyati va jamoatchilik muloqotida ham o‘z ifodasini topishi zarur.

Umuman olganda, BMT minbaridan so‘zlangan nutq bugungi mamlakatimiz tashqi siyosiy kursining uyg‘unligini ko‘rsatadi. Bir tarafdian, yurtimiz global masalalarda mas’uliyatli ishtirokchi sifatida ko‘rinayotgan bo‘lsa, ikkinchi tarafdian, ikki tomonlama munosabatlarda amaliy natijalarga erishmogqda.

Ana shu uyg‘unlik O‘zbekistonning xalqaro siyosiy portretini belgilayotgan asosiy jihattir. Bu portretda tinchlik, ochiqlik va pragmatizm g’oyalari ustuvor o‘rin tutadi.



YER BILAN HISOBLASHDINGMI,

EL BILAN HAM HISOBLASH



Agrotarmoq

Boshlanishi 1-betda

Avvaliga faqat paxta va g'alla yetishtirish bilan cheklangan xo'jalik bugun ilmiy yondashuvlar asosida ko'p tarmoqli fermer xo'jaligiga aylandi. Hozirga qadar xo'jalikning 55 gektar yerida paxta va g'alla yetishtiriladi. Fermer, shuningdek, o'z tomorqasida ham mo'jaz anorzor barpo etgan.

— Yer eng qimmatli va bebaho ne'mat, — deydi “Omad” fermer xo'jaligi rahbari Botir Rajabov. — Unga egalik qilayotgan insonning zimmasida yerdan oqilona foydalanish, davlatga, jamiyatga, yaqinlariga, mahalla-ko'ygga foyda keltirish mas'uliyati turadi.

Yerga mehr berilsa, u hech qachon egasini quruq qo'ymasligini Botir aka yaxshi biladi. Shu bois, doim hosildorlik rejasini ortig'i bilan bajaradi. Masalan, o'tgan yili g'alla hosili 90, paxta hosili 40 sentnerni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich yanada oshdi.

— Joriy mavsumda g'alladan 102, paxtadan 55 sentnerdan oshirib hosil oldik. Bu natijaga erishishda yaratilgan sharoit, zamonaviy xorijiy texnikalardan foydalanish va tajribali olimlar bilan yaqin hamkorlik katta ahamiyat kasb etyapti, — deydi “Omad” fermer xo'jaligi rahbari Botir Rajabov.

Ilmiy tavsiyalar va innovatsion yondashuvlarning dehqonchilikka ham joriy etilishi yuqori hosildorlikka erishishning asosiy

omillaridan. Buni fermer yana bir bor isbotladi. Tindirilgan, ilmiy asosda tozalangan va saralangan g'alla urug'ini ekib, kutilganidan ham yuqori hosil olishga erishdi. Endi uning samarali ish uslubi ommalashib, ko'plab dehqonlar uchun ilhom manbaiga aylanmoqda.

“Men fermerman, ishim faqat qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish” deb Botir Rajabov qarab o'tirgani yo'q. Mahalladagi ijtimoiy masalalarda ham faol. Ochig'i, uning ko'magida mahalla ko'chalarini ta'mirlandi, xonadonlarga obihayot kirib bordi. Kam ta'minlangan oilalarga berilayotgan yordam ham fermerning ijtimoiy mas'uliyatidan dalolat. “Yer bilan hisoblashib, uning ne'matidan

bahramand bo'lgan kishi el bilan ham hisoblashishi kerak. Shu sabab toparmon inson imkoniyati cheklanganlarga ham saxovat qo'lini cho'zishi lozim. Baraka shunda bo'ladi”, deydi Botir Rajabov.

Ko'p yillik mehnati evaziga “Shuhrat” medaliga sazovor bo'lgani fermerning ko'ng'ini tog'dek ko'tardi. Shu yo'lda ko'rgan qiyinchiliklari aridi-qoldi.

— Dastlabki yillari qishloq xo'jaligi texnikasini boshqarish men uchun qiyin bo'lgan, — deydi u. — Lekin hozir fermer xo'jaligi rahbari sifatida faqat nazoratchilik bilan cheklanib qolganim yo'q. Ertatongdan dalaga oshiqaman. Ishni faqat mexanizatorga topshirib qo'ymay, kezi kelsa, yeng shimarib,



bo'sh turgan texnikani ishga tushiraman. Chunki vaqtni boy bermaslik kerak. Qishloq xo'jaligi uchun har daqiqa muhim ekanini dehqonlar juda yaxshi biladi.

Botir Rajabov faqat fermer emas, mehnatga sadoqat, ilmiy yondashuv va ijtimoiy mas'uliyatni birlashtirgan qishloq xo'jaligi yetakchisi. Shu kunlarda fermerni paxta dalasidan topasiz.

U kabi boshqa surxondaryolik dehqonlar ham doim ko'p yillik tajribaga tayanib ish

ko'radi. Natijada ko'zlangan hosil cho'g'i hamisha yuqori bo'ladi. Yerga chigit qadallishi, g'o'za gullashi, paxta ochilgani, terim boshlangani haqidagi yangiliklar ham eng avval Surxon vohasidan tarqalishi bejiz emas. Chunki viloyat iqlimi paxtachilikka mos. Bu voha paxtakorlaridan katta mas'uliyat talab etadi. Ayniqsa, bu yilgi anomal issiq paxtachilik uchun favqulodda vaziyat bo'ldi. Lekin barcha imkoniyat safarbar qilinib, hosil saqlab qolindi. Ayni paytda viloyat dalalarida paxta yig'im-terimi qizg'in pallaga kirgan.

Joriy yil Surxondaryoda 1964 ta fermer xo'jaligi 62 ming 850 gektar maydonda paxta yetishtirdi. Ular bu mavsumda 275 ming 283 tonna “oq oltin” yig'ishni rejalashtirgan. Fermerlarning aytishicha, yoz oylarida kunlik harorat o'rtacha 38 darajani tashkil etgani hosilga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yana bir gap: bu yil ham yetishtirilgan paxta hosilini yig'ib-terib olish jarayonini uyushqoqlik bilan tashkil etish, terimchilarning moddiy manfaatdorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, paxta yig'im-terimi uchun 1187 ta guruh tuzilib, 173 mingdan ortiq terimchi jalb etilgan. Mashinada terilgan bir kilo paxta uchun 1350 so'mdan, qo'lda terilgani uchun esa 2000 so'mdan haq to'lanmoqda. Xohlagan odam ixtiyoriy ravishda paxta yig'im-terimida ishtirok etishi mumkin. Bunda u muayyan terim guruhiga birlashtirilgan hamda hech qanday muammosiz to'liq mehnat haqini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Terimchilarni tushlik, ichimlik suv bilan ta'minlash, paxta maydoniga olib borib, olib kelish — fermer xo'jaligi zimmasida. Paxta xomashyosi qabul shoxobchalariga o'z vaqtida yetkazilishi uchun 2975 ta qishloq xo'jaligi texnikasi birlashtirilgan.

Bundan tashqari, paxta terish samaradorligini oshirish maqsadida xorijdan olib kelingan 60 ta zamonaviy paxta terish mashinasi orqali bir kunda 10 tonnadan ortiq “oq oltin” yig'ib olinmoqda.

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

YANGI O'ZBEKISTON



Kreativ yondashuv

UCH SOTIX JOYDAN
100 MILLION SO'M DAROMADQUVASOY SHAHRIDAGI BOG'BON MAHALLASIDA
YASHOVCHI RO'ZIBOY MAMAJONOV TOMORQASIDA
YANGI TAJRIBA ASOSIDA QULUPNAY YETISHTIRIB,
KO'PLARGA IBRAT BO'LMOQDA

— Avvallari ham tomorqada qulupnay ekib daromad olganmiz. Ammo jarayon bir mavsumgina davom etardi, — deydi Ro'ziboy Mamajonov. — Ijtimoiy tarmoqlardan issiqxona usulida qulupnay yetishtirib, yil bo'yi hosil olayotgan mirishkorlar haqida bilib oldim, izlandim, o'rgandim. O'tgan mavsumda yozda haroratni sovituvchi, qishda isituvchi uskunar bilan jihozlangan 3 sotixli zamonaviy issiqxona qurdim. Bu har qanday sharoitda ekinga ishlov berish, issiq va sovuq haroratdan

qilish bilan birga yig'im-terimda ham qo' keladi. Qulupnayni shu tarzda ekish an'anaviy usuldagiga nisbatan 8-10 hissa ko'p ko'chat qadash imkonini beradi. O'z-o'zidan hosildorlik ham oshadi. Muhimi, sifat yanada yaxshilanadi.

Issiqxona muqobil yoqilg'ida isitiladi. Tomchilatib sug'orish tizimi esa suv sarfi va ozqiqlantirish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytiradi.

— Bog'dorchilik, dehqonchilik hududimizning asosiy drayveri, — deydi



saqlash imkoniyatini berdi. Birinchi yilning o'zida 100 million so'mdan ortiq daromad ko'tardik. Ayni kunda 50 ming tupdan ortiq qulupnay ko'chatimiz hosilga kirdi. Kelgusida bu yo'nalishda korporatsiya tashkil etib, amaliy tajribamizni ommalashtirish orqali mahsulot eksportini yo'lga qo'yishni maqsad qilganman.

Bugun bir kilo qulupnay bozorda 150-200 ming so'mdan sotilyapti. Tomorqachi bir haftada o'rta hisobda 50-60 kilo hosilni bozorga chiqarayotgani inobatga olinsa, daromad salmog'ini chamalab olish qiyin emas.

Ro'ziboy Mamajonov bu natijaga osonlikcha erishayotgani yo'q, albatta. Avvalo, mehnat, dunyodagi ilg'or ish tajribalarini amaliyotda qo'llash yutuqlarga sabab bo'ldi. Yangi tajriba an'anaviy usulda qulupnay parvarishlashdan birmuncha farq qiladi. Ko'chatlar yerga emas, 1,5 metr balandda o'rnatilgan maxsus qutiga ekiladi. Bu nihol rivojini har jihatdan nazorat

Bog'bon mahallasi raisi Solijon Rahmatullayev. — Keyingi yillarda intensiv bog'larda meva, tomorqalarda sabzavot yetishtirish orqali hosildorlikni ko'paytirish tajribalari ommalashib bormoqda. Ayniqsa, issiqxonada yil davomida qulupnay, malina yetishtirish istagini bildirayotgan tashabbuskor tomorqachilarni har jihatdan qo'llab-quvvatlab, moddiy va ma'naviy ko'maklashishga harakat qilaymiz.

Tomorqadan samarali foydalanish, ilg'or tajribalarni o'rganish ommalashayotgani mazkur yo'nalishdagi islohotlar yaxshi samara berib, kam yerdan katta daromad olish imkonini kengayib borayotganidan dalolat. Bu esa aholi bandligini ta'minlash, daromad salmog'ini oshirish, muhimi, el dasturxonini to'kin bo'lishiga xizmat qilayapti.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Dolzarb mavzu

Har bir inson ijtimoiy mavqei yoki kasbidan qat'i nazar, iste'molchidir. Kimdir ozq-ovqat mahsulotlarini sotib oladi, boshqasi esa uy-joy, transport vositasi yoki moliyaviy xizmatlarga ehtiyoj sezadi. Umumlan olganda, ehtiyoj paydo bo'lgan har bir holatda inson iste'molchi sifatida ishtirok etadi. Shu sababli “iste'molchi manfaatlarini himoya qilish” degan ibora tobora dolzarb tus olmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda, shuningdek, kundalik hayotda sifatsiz mahsulotlar savdosi, uy-joy oldi-sotdisidagi firibgarliklar yoki moliyaviy xizmatlar bilan bog'liq muammolar haqida tez-tez eshitib turibmiz. Bu kabi holatlarning barchasi iste'molchining qonuniy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin. Ayniqsa, moliyaviy xizmatlar sohasida, xususan, kredit siyosatida iste'molchilar huquqlarining buzilishi ko'plab muhokamalarga sabab bo'layotgan asosiy masalalardan biridir.

Bugun aholining aksariyat qismi kreditdan foydalanmoqda. Bu moliyaviy vosita hisob-kitob bilan va maqsadga muvofiq qo'llansa, ko'plab oilalarning muammosini hal qiladi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida bir necha daqiqada kredit olish imkoniyati yaratilgani esa aholiga qulaylik keltirmoqda.

“Guruch kumaksiz bo'lmaydi” deyilganidek, ko'plab holatlarda fuqarolar kredit olishdan avval yetarli axborotga ega emasligi, shartlarni to'liq anglab yetmasligi yoki kelajakdagi to'lov imkoniyatini noto'g'ri baholashi sababli, keyinchalik jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa iste'molchilar huquqlarini institutsional himoya qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirishni talab etadi.

Hozir nafaqat yurtimizda, balki xalqaro miqyosda ham bu kabi muammolar yo'q emas. Lekin aksariyat rivojlangan davlatlarda moliyaviy xizmatlar sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish borasida qator yutuqlarga erishilayotir. Masalan, bir kishi kredit oladi. Ammo muayyan vaqt o'tib, ishi orqaga ketdi va uni to'lash imkoniyatini yo'qotdi. Moliyaviy xizmatlar rivojlangan davlatlarda iste'molchining imkoniyatlaridan kelib chiqib,

to'lov muddatini kechiktirish yoki foizini kamaytirish kabi choralar ko'rildi. Lo'nda qilib aytganda, iste'molchi manfaatlari birinchi o'rinda chiqadi.

Moliyaviy xizmatlarda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda Markaziy bank alohida o'rin tutadi. U nafaqat pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi organ, balki moliyaviy tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi bosh institut sifatida fuqarolar manfaatlarini muhofaza qilishda ham muhim vazifani bajaradi.

2025-yildan boshlab Markaziy bank Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish konsepsiyasini qabul qilgan holda, nazorat va tartibga solish tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyani hayotga tatbiq etmoqda.

— Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish konsepsiyasi bir nechta yo'nalishni qamrab olgan. Shulardan biri moliyaviy xizmatlar yetkazib beruvchilar — banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlar iste'molchilar uchun aniq va kutilgan natijalarni ta'minlashi zarur. Bu xizmatlar mijozlarning ehtiyojiga mos va shaffof bo'lishi kerak, — deydi Markaziy bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati direktori Bahodir Mirzaev. — Shuningdek, iste'molchilar natijaga erishishi uchun moliyaviy

xizmatlar ko'rsatuvchilar mas'uliyati va faol bo'lishi lozim. Ular mijozlarga xizmatlar haqida to'liq ma'lumot berish, moliyaviy xatarlar va imkoniyatlarni tushuntirish orqali qaror qabul qilish jarayonida yordam ko'rsatishi shart.

Bugun moliyaviy xizmatlar bozorida mijozlarning haq-huquqlarini himoya qilish va sifatlari xizmat ko'rsatish nafaqat zarur, balki jamiyatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omilidir. Shu bois, moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilar qator

muhim prinsiplarga qat'iyo'riya rioya qilishi shart. Bu prinsiplar orqali mijozlarga ishonchli, shaffof va adolatl munosabat kafolatlanadi.

Moliyaviy xizmatlarda axborot ochiqligi eng asosiy omillardan biri bo'lib, barcha muhim ma'lumot mijozga o'z vaqtida, aniq va tushunarli yetkazilishi zarur. Bu mijozning qarorlarni asosli qabul qilishiga yordam berish bilan birga, moliyaviy savodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ko'p hollarda ma'lumot yetishmasligi

YOXUD ISTE'MOLCHI HUQUQLARI HIMOYASI —
BARQAROR MOLIYAVIY TIZIM POYDEVORI

yoki noto'g'ri tushuntirish moliyaviy xatolarga va noroziliklarga sabab bo'ladi.

Har bir mijozning moliyaviy vaziyati, maqsadi va xavfi turlicha bo'ladi. Shu bois, moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilar mijozlarning aniq ehtiyojlarini o'rganib, faqat ular uchun mos va foydali mahsulotlarni taklif etishi kerak. Masalan, bugun moliya tashkilotlari oldida mijozni qanday bo'lmasin, o'zining iste'molchisiga aylantirish vazifasi turgandek. Uning ijtimoiy ahvoli, daromad manbai ikkinchi darajali masalaga aylanib qolgan. Kreditni to'lash jarayonidagi muammolar kelib chiqishida asosiy sabablardan biri ham aynan shu jihatni inobatga olmaslikdir.

Shu bilan birga, tanlov erkinligini ta'minlash muhimdir. Iste'molchilar turli moliyaviy xizmatlarni erkin tanlash imkoniga ega bo'lishi lozim. Hech kim mijozlarni o'z xohishiga zid ravishda biror mahsulot yoki xizmatdan foydalanishga majburlay olmaydi. Bu prinsip bozor raqobatini rag'batlantirib, sifatlari xizmat ko'rsatishni rivojlantiradi.

Yana bir muhim jihat moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilarning odoat-axloqi va halollikka asoslangan yondashuviga bog'liq. Iste'molchilarga doim ochiq, shaffof va samimiy munosabatda bo'lish zarur. Chalq'ituvchi, aldovchi yoki noto'g'ri ma'lumot berishga yo'l qo'yilmaydi. Bu mijozlar ishonchini saqlashda asosiy omildir.

Iste'molchilarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi ham alohida e'tibor talab qiladi. Har qanday shaxsiy ma'lumot qonunlarga muvofiq yig'ilishi, saqlanishi va faqat muayyan maqsadlarda ishlatilishi kerak. Ma'lumotlardan noqonuniy foydalanilishiga qarshi qat'iy choralar ko'riliishi zarur. Bu mijozlarning shaxsiy hayotiga hurmat ko'rsatkichi hamdir.

Aksariyatimizning bankka ishimiz tushgan. Masalan, bank plastik kartamiz “qullanib” qoladi. Agar bank bilan bog'lanmoqchi bo'lsak, ba'zan navbatimiz kelishini soatlab kutamiz. Bu holatlarning oldini olish uchun iste'molchilar bilan samarali muloqot va qayta aloqa tizimi yo'lga qo'yilishi shart.

Mijozlar fikr-mulohazalarini erkin bildirishi uchun qulay, tezkor va oson foydalaniladigan kanallar bo'lishi kerak. Bu orqali xizmatlarni takomillashtirish va mijozlarning talablariga tez javob berish imkoniyati yaratiladi. Moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilar mijozlarning muammosiga tez va samarali yechim topish uchun barcha zarur shart-sharoitni ta'minlashi lozim.

Moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan mijozlarga esa alohida e'tibor qaratilishi shart. Restrukturizatsiya, to'lov muddatini kechiktirish kabi yengillashtiruvchi choralar orqali murakkab vaziyatdagi mijozlar qo'llab-quvvatlanadi. Bunday yondashuv insonparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni namoyon etadi.

Shuningdek, aholining zaif qatlami — nogironlar, yoshlar va kam ta'minlangan guruhlar uchun maxsus xizmatlar joriy etiladi. Ular bilan muloqot qiluvchi xodimlar maxsus tayyorgarlikdan o'tishi va yetarli malakaga ega bo'lishi zarur. Zaif guruhlar uchun alohida shikoyatlar mexanizmi va tezkor qo'llab-quvvatlov kanallari tashkil etiladi.

Ushbu chora-tadbirlar moliyaviy xizmatlar bozorida iste'molchilarning huquqlarini samarali himoya qilish va ishonchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Boshqaruv va ichki nazorat tizimlari esa ushbu jarayonlarning shaffof va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Moliyaviy xizmatlar sohasi tobora kengayib borayotgan bugungi sharoitda iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish nafaqat ijtimoiy, balki strategik ahamiyatga ega. Markaziy bankning bu boradagi faoliyati, jumladan, yangi konsepsiya asosidagi islohotlari yurtimizda barqaror va adolatl moliyaviy tizimni shakllantirishda muhim bosqich bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu umumiy iqtisodiy o'sish va jamiyatdagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ham hissa qo'shadi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Munosabat

BUGUNGI MAKTAB ZARUR MA'LUMOTLARNI O'ZLASHTIRISH MANZILI EMAS



Shoir G'AFFOROVA, Kamoliddin Rahimov nomidagi 11-bolalar musiqi va san'at maktabi direktori

Gapni insonlarning baxt haqidagi tasavvurlari bilan boshlagan bo'lsam-da, hozir aytmog'chi bo'layotganim butunlay boshqa mavzu — Prezidentimizning Namangan viloyatiga tashrifi haqida. Unda gapni nega baxtdan boshladim? Bu ham bejiz emas, albatta. Chunki tashrif jarayonlarini ko'rib, kuzatib, ishtirokchi sifatida tahlil qilib borar ekanman, xayolimda bir savol tinchlik bermaydi: mendan, namanganliklardan, umuman, o'zbek ayolidan baxtli inson bormikan?

Nega aynan men? Chunki birinchidan, ayolman. Mamlakatimizda keyingi yillarda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, davlat boshqaruvi va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, oliy va undan keyingi bosqichda ta'lim olishi, sog'lig'ini mustahkamlashi, umuman, bir ayoling chinakam baxtli bo'lishi uchun nima kerak bo'lsa, barchasi ortig'i bilan muhayyo qilinmoqdaki, buni aytmaslik, e'tirof etmaslik, g'ururlanmaslik mumkin emas.

Namangan masalasiga to'xtaladigan bo'lsam, viloyatimiz bundan bor-yo'g'i 10 yil avval ham agrar tarmoqqa ixtisoslashgan, dotatsiyada o'tiradigan qoloq hudud edi. Hech bir viloyatni kamstimgan holda ishonch bilan aytishim mumkin, bugun Namangan tadbirkorlik, ishbiarmonlik borasida yetakchilardan biriga aylandi. Axir bundan

Dunyoda 8,2 milliarddan ortiq odamning barmoq izlaridan bir-biriga aynan o'xshashini topib bo'lmagani kabi insonlarning baxt haqida aynan bir xil tasavvurini uchratish ham mushkul. Chunki baxt to'g'risidagi tasavvur har kimning ichki olami, moddiy-ma'naviy boyligi, turmush tarzi, e'tiqodi kabi ko'plab omillar sabab turlicha bo'ladi. Jamiyat nuqtayi nazaridan olib qaralganda esa o'sha turfa qarash va xulosalarning umumlashmasidan muayyan muhitga xos ideallar — baxt formulasi hosil qilinadi.

faxrlanmay, qalbing iftixorga to'lib-toshmay bo'ladingi?!

Ayniqsa, davlatimiz rahbari bilan o'tgan uchrashuv biz uchun juda katta bayram bo'ldi. Prezidentimizning bugun ta'limni yuksaltirishga qaratayotgan e'tibori shu yurt farzandi, yoshlar kelajagi ishonib topshirilgan bir pedagog sifatida meni behad quvontirdi. Biror natijaga erishishdan ko'ra uni saqlab turish, rivojlantirish qiyinroq degan nuqtayi nazardan kelib chiqsak, albatta, Prezidentimiz e'tirofi va ishonchi zimmamizga juda katta mas'uliyat yuklaydi.

Shu ma'noda, men maqsad qo'ydim: kelgusida ta'lim sifatini yanada oshirish, yangi metodlar yaratishga o'zimga so'z berdirm.

Bugun ta'limga berilayotgan yuksak e'tibor samarasi o'laroq, o'qituvchilar eng asosiy vazifasi — sifatli ta'lim berish va yosh avlodni tarbiyalashga butun vujudi bilan e'tibor qaratish imkoniga ega bo'ldi. Maktab chin ma'noda imkoniyatlar maskaniga aylandi. Mamlakat kelajagi aynan shu yerda yaratilayotgani yaqqol namoyon bo'lyapti.

Birgina misol. Oldin respublika tanlovlarida ishtirok etish juda qiyin edi. Mana, hozir bir yilda o'ndan ortiq xalqaro va respublika tanlovida ishtirok etib, yuqori marlamani zabt etyapmiz. Xususan, birgina o'tgan yilda viloyatimizdan 376 o'quvchi turli yo'nalishlarda g'olib bo'lgan bo'lsa, joriy yilda ularning soni 486 nafarga yetdi.

Bir so'z bilan aytganda, maktab ta'limi yo'nalishidagi islohotlar butun ta'lim tizimining keng ko'lamli o'zgarishlariga turtki bo'ldi. Bugungi maktab faqatgina zarur ma'lumotlarni o'zlashtirish manzili emas, balki o'quvchida tanqidiy fikrlash, mas'uliyat, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirish orqali barkamol shaxs shakllanadigan haqiqiy ilm maskaniga aylanmoqda.



“INSON” MARKAZLARI: IJTIMOY TENGLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK KAFOLATI

Jarayon



Boshlanishi 1-betda

— Bugun tumanimizda 28 ta mahalla mavjud. Ularning barchasida ijtimoiy xodimlar faoliyat yuritmoqda, — deydi Nurota tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi bo'lim boshlig'i Usmon Tursunov. — Joriy yil avvalida xatlov o'tkazib, ehtiyojmand oilalar va nogironlign bo'lgan fuqarolar, yolg'iz, parvarishga muhtojlar ro'yxatini tuzdik. Ayni vaqtda 2600 dan ziyod fuqaroga bolalar nafaqasi va moddiy yordam berilmoqda. Ro'yxatdagi kambag'al 1271 oilaga har tomonlama ko'mak berildi. Endi ularni barqaror daromadli ish bilan band qilish chorasi ko'rilmogda. Shuningdek, nogironlign bo'lgan shaxslarning jamiyatda to'liq ishtirokini ta'minlash maqsadida shu yilning o'tgan davrida 125 fuqaro reabilitatsiya qilindi. 355 kishi 30 turdagi reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlandi. Nogironlign bo'lgan 62 fuqaro ishga joylashtirildi. Alohida ehtiyojmand 83 bola ta'limga jalb etildi.

Prezidentimizning “Nogironlign bo'lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga ko'ra, 2025-yil 1-martdan har bir hududda ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan kunduzgi parvarish xizmati faoliyati yo'lga qo'yildi.

Qarorda nogironlign bo'lgan bolalarni kunduzgi parvarish xizmatiga qabul qilish tartibi ham belgilab berilgan. Bolalarning

Prezidentimizning “Nogironlign bo'lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga ko'ra, 2025-yil 1-martdan har bir hududda ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan kunduzgi parvarish xizmati faoliyati yo'lga qo'yildi.



shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ko'lamlari kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga ko'ra, “Faol hayotga qadam” dasturi joriy etildi. Ushbu dastur doirasida nogironlign bo'lgan fuqarolar va yolg'iz yashovchi keksalarga qulay sharoit yaratib, ijtimoiy hayotga faol jalb qilish maqsadida kunduzgi qarov xizmati yo'lga qo'yilmoqda. Ayni vaqtda Nurota tumanida ish boshlagan shu kabi xizmatlarga nogironlign bo'lgan fuqarolar qamrab olingan.

Mustaqillik mahallasida yashovchi O'raloy Xo'jamurodova bundan 11 yil oldin sog'lig'idagi muammolar sabab yura olmay qolgandi. O'tgan har bir kun uni sinovli va bardoshli bo'lishga undadi. Yon-atrofidagi mehrlri insonlar ko'magi, shirin so'zi bilan uning hayotga ishonchini oshirdi. Muhimi, “mahalla yetitilgi”, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlari va boshqa saxovatilar e'tiborida.

— Mahallamizda nogironlign bo'lgan 228 fuqaro yashaydi. Ular bilan muntazam muloqotdamiz, — deydi Nurota tumanidagi Mustaqillik mahallasi ijtimoiy xodimi Farida Nazarova. — 6 nafari o'zgalar parvarishiga muhtoj birinchi guruh nogironi. Ushbu fuqarolar doimiy ravishda reabilitatsiya vositalari va zarur dori-darmon bilan ta'minlanmoqda. Ikkinchi guruh nogironlign bo'lgan fuqarolarning imkoniyatiga mos ish topib berish choralari ko'rilmogda. Hozirgacha nogironlign bor 4 fuqaro ishli bo'ldi. Jumladan, yurish imkoniyati bo'lmagan O'raloy Xo'jamurodovaga elektr avracha olib berilib, uyi ta'mirlandi. Shuningdek, uyidan chiqmay pul topadigan ish bilan band qilindi.

Mahalladagi ijtimoiy xodimlar faoliyati jamiyatda barqarorlik va farovonlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular ehtiyojmandlarga tez va samarali yordam ko'rsatib, oilaviy va ijtimoiy muammolarni bartaraf etishdagi asosiy kuchdir. Bu kabi euzu ishlar faqat moddiy yordam emas, balki ruhiy tayanch, ma'naviy dastak, insoniylik, mehr, g'amxo'rlikdir. Shuning o'ziyoq yangi O'zbekistondagi islohotlarda “Inson qadri uchun” tamoyili ustuvor ekaniga yaqqol dalil bo'ladi.

G'olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



ADOLATLI TARBIYA

UMIDBAXSH ISLOHOTLAR ORTIDAGI MA'NAVY MEZONLARGA BIR NAZAR

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, adolat hodisasida jamiyatni tartibga soluvchanlik xususiyati bor. Adolatda ikki ma'naviy jihat — ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda axloq sohasidagi miqdor o'Ichovchi ham deiyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o'Ichab turadigan tarozidir. Adolat bor joyda ijtimoiy zulum, beboshlikka yo'y'o'q.

Arastu adolat xususida bunday deydi: “Adolatlilik turfa xildir. Ulardan biri — qonunga muvofiqlilik. Qonun buyurganini qilish adolatlri ish hisoblanadi. Qonun odamlardan odil, oqil va fozil bo'lishni talab qiladi. Shu bois, odillik eng mukammal fazilati sanaladi. Modomiki, adolatlilik qonunga muvofiq yashash ekan, qonun esa barchadan adlu insof bilan yashashni talab qilar ekan, qonun asosida ish tutadigan odam eng fozil odamdri. Adolatlilik eng yaxshi fazilatdri”.

Forobiy fozil odamlar shahrini bir butun organizmga o'xshatdi: agar bir a'zoda kasallik paydo bo'lsa, butun tana birdek aziyat chekadi. Demak, fozil jamiyatning asosi to'g'ri tarbiya, odilona boshqaruv va bilim ustuvorligidir.

Bugun jamiyatimizda aynan shu ko'hna hikmatning zamonaviy ifodasini ko'ryapmiz, deiyishga to'la haqqimiz bor. So'nggi sakkiz yil ichida ta'lim sifatini oshirish, tarbiya jarayonini adolat mezonlari asosida tashkil etish, yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqarish bo'yicha katta natijalarga erishildi, jamiyat immuniteti ko'tarildi.

Bunday yondashuv, tabiiyki, iqtisodiy ko'rsatkichlarda ham o'z ifodasini topmogda. O'tgan yillar davomida mamlakatimiz iqtisodiyoti ikki baravar o'sdi, yalpi ichki mahsulot hajmi yil oxiriga qadar 130 milliard dollardan oshishi kutilmogda. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish hisobiga eksport hajmi 25 milliard dollarga olib chiqilyapti. Shu bilan birga, o'tgan sakkiz yil ichida mamlakatimizga 130 milliard dollardan ortiq xorijiy sarmoya jalb etildi. Muhimi, avvallari sarmoya asosan xomashyo resurslariga yo'naltirilgan bo'lsa, endilikda u yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, infratuzilmani yaxshilash va xizmatlar sohasini rivojlantirishga yo'naltirilmogda.

Davlatimiz rahbari bu borada ta'kidlaganidek: “Men bu iqtisodiy ko'rsatkichlarga nima uchun ko'p to'xtalypman? Chunki iqtisodiyot qanchalik mustahkam bo'lsa, ta'lim rivojlanadi. Ta'lim sifati yuqori bo'lgan mamlakatda esa iqtisodiyot barqaror o'sadi. Bu — hayot qonuni”.

Dayarli har kuni tug'iladigan yangi g'oyalar, beriladigan tashabbuslar, yechimlar, xususan, ta'limda teng imkoniyat yaratish, inson qadrini e'zozlash, aholining turli qatlamlari manfaatini uyg'unlashtirishga qaratilgan islohotlar bugungi murakkab davrda muvozanatni topishga urinishning yorqin namunalari deb o'ylayman.

Bu yo'lda itilish, izlanish va mukammal yechim qidirish jarayoni to'xtamay davom etmogda. Shuning uchun bugun jamiyatimizda adolat tamoyili bosqichima-bosqich mustahkamlanib, har bir fuqaro o'zini davlat biosiyatidagi muhim ishtirokchi sifatida his qila boshlayapti.

Shu ma'noda, Prezidentimiz raisligida maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ijrosi va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yaqinda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan asosiy vazifalar ham aynan shu adolat mezonlariga tayanadi. Chunki tarbiya va ta'lim tizimida aynan adolat ustuvor bo'lmasa, bolalarning imkoniyatlari turlicha taqsimlanib, bugundan kelajakka qadar o'ylanigan strategiyalar, loyihalar, harakatlar va umidlar barbod bo'lishi mumkin.

Qush qanotining biri uzun, biri qisqa bo'lsa, tabiiyki, ucha olmaydi. Jamiyat ham xuddi shunday: agar bir bolaga imkoniyat berilsa-yu boshqasi chetda qolsa, millatning “parvozi” sekinlashadi. Adolatsizlik hech qachon faqat bitta insonnigina qamrab olmaydi. Maktabda bir bolaga nohaqlik qilinsa, qolganlar ham bu manzarani ko'radi va qalban ta'sirlanadi. Shu bois, bir nuqtadagi adolatsizlik butun sog'lom muhit kayfiyatini buzadi.

Psixologiya nuqtayi nazaridan esa, adolat bolaning ichki ishonchi, ruhiy kapitali bo'lib

xizmat qiladi. U kattalarning har bir qaroriga qarab o'sha kapitalni yig'adi. Agar u adolatlri muhitda o'ssa, kelajakka ochiq qarashni o'rganadi. Aks holda, ichki ishonchi sinadi, mayda orzulari kabi jur'atsiz va qo'rqqoq bo'lib qoladi. Millatning katta orzusi esa ana shu millionlab shaxsiy orzular yig'indisidan quriladi.



Fanda “bolalikdagi kod” degan tushuncha bor. Inson bolaligida qanday odamlar davrasida tarbiya topsa, uning orzulari ham shunga umrboq kodlanadi. Masalan, yoshligidan kitobni qo'ldan tushirmagan farzand katta bo'lgach, ijodkor yoki tadqiqotchi olim bo'lishga moyillik ko'rsatadi. Yoki sport muhitida o'sgan yigit-qizlarda jismoniy faoliyat hayotiy ehtiyojga aylanadi. Demak, har qanday insonning ertangi fazilatleri, kasbi, hatto jamiyatdagi o'rni ham aynan bolalikda qo'yilgan “kod” bilan belgilanadi.

Shu haqiqatni chuqur anglagan davlatimiz rahbari ta'lim-tarbiya masalasini strategik ahamiyatdagi yo'nalish sifatida qayd etar ekan, bunday dedi: “Odamlarimiz yaxshi yashashi uchun iqtisodiyotimiz kuchli bo'lishi kerak! Buning uchun yangi tovar, yangi xizmat, yangi texnologiya kerak! Sifatli ta'lim tizimi

Buning ilk qadami sifatida yangi o'quv yilidan barcha bog'cha, maktab va oliygohlarda har dushanba “Kelajak soati” darslari o'tilmogda. Ushbu amaliy qadam tarbiya modeli birdaniga hayotga tatbiq etilayotganini ko'rsatadi. “Kelajak soati” nomining o'ziyoq katta ma'noni anglatadi: har bir hafta yangi g'oya va ma'naviy qiymatlardan boshlanishiga ishora. Bu darslar orqali bola hayotining yo'nalishi belgilab beriladi, unga zamon va kelajak haqida fikrlash o'rgatiladi.

Umuminsoniy, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik g'oyasi, yangi O'zbekistondagi islohotlarni o'zgarib borayotgan zamon sharoitida texnologiya asri bolalariga chuqurroq, zamonaviy usullarda yetkazish kerakligi ham aytiladi.

E'tibor bering, bu yerdagi eng muhim jumla — “zamonaviy usullar”. Boisi, bugun qadriyatlarini odatiy, quruq shiorbozlik bilan emas, balki multimedia, animatsiya, interaktiv darslar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali yetkazish maqsadga ko'proq yaqinlashtiradi. Bolalar internet va gadjetlar olamida yashayotgan ekan, ular bilan shu tilda muloqot qilish lozim. Milliy g'oyani ularga yaqin va kreativ uslubda ifoda etish tarbiya samaradorligini oshiradi.

Shu bois, endi Bolalar kontentini rivojlantirish markazi Qori Nilloziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti olimlari bilan birgalikda qiziqarli videoroliklar ishlab chiqadi. Milliy tarbiyaning muvaffaqiyati, shubhasiz, uning ifodalinish shakliga bog'liq. Bugungi bolalar ko'proq ko'radi, ko'proq eshitadi va his etadi. Shuning uchun videokontentlar, podkastlar, qisqa metrajli multfilmlar orqali g'oyalarni yetkazish darkor. Olimlar va ijodkorlar birlashishi esa ilm va ijod uyg'unligini ta'minlaydi. Bu orqali tarbiya nazariy holatida qotib qolmaydi, yosh ongga yorqin, ta'sirli shaklda kirib boradi.

Yaratilgan kontent “Milliy tarbiya” platformasiga joylashtirildi, telekanallarda namoyish qilinadi. Buning ortidagi ma'no ham tushunarli: har bir bola qayerda yashashidan qat'i nazar, bir xil imkoniyatdan bahramand bo'lishi kerak. Bu esa tarbiyadagi adolatning muhim ko'rinishidir.



orqaligina bularga erisha olamiz! Boshqa yo'limiz yo'q! Shu haqiqatni anglab, har kuni o'zini qiynab ishlagan rahbarning tumanida, bog'chasi, maktabi, texnikumi, oliygohida albatta o'zgarish va natija bo'ladi”.

Yaqinda Prezidentimiz yosh avlodni tarbiyalashning yagona konsepsiyasi bilan tanishdi. Bu shuni anatadiki, davlat miqyosida milliy tarbiya masalasiga tubdan e'tibor qaratilmogda. Yagona konsepsiya tarbiyada parokandalikka barham berish, har bir muassasa, tashkilot, guruh o'zboshimcha yo'l tutmasdan, umumiy maqsad yo'lda harakat qilishi demakdir.

Endilikda yosh toifalari bo'yicha milliy tarbiya modeli yaratiladi. Bu orqali bolalar zamonaviy kompetensiyaga ega mutaxassis bo'lish bilan birga milliy qadriyatlarga sodiq inson bo'lib tarbiyalanadi.

Keling, buni ham ozingna tahlil qilamiz: tarbiya modelining yosh toifalariga qarab ishlab chiqilishi metodologik jihatdan eng to'g'ri yondashuv. Chunki endi bog'cha bolasiga ham, maktab o'quvchisiga ham bir xil tarbiya usulini qo'llash samara bermasligini anglayapmiz. Bundan buyon tarbiya tizimi shiddatkor zamonga hamqadam bo'lib, bolalarga texnologik ko'nikmalarni o'rgatish bilan birga ularning qalbiga milliy ruhni ham joylaydi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Ahmadali Asqarov — arxeolog, tarixchi, ilmiy muhitda yuksak obro'—e'tibor qozongan va e'tirofga sazovor bo'lgan olim. Uning ilmiy asarlari, izlanishlari Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonning qadimgi madaniy va etnik tarixini o'rganishda qadrlı manba bo'lib kelmoqda. Serqirra olimning ilmiy qiziqishlari keng: arxeologiya, etnogenez, davlatchilikning shakllanishi, madaniy-moddiy merosni o'rganish.

Uzoq yillar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutiga rahbarlik asnosida turli arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etgan, qadimgi shaharlar madaniyati va ilk davlatchilikning shakllanish jarayonlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar qilgan. Tarixga, sir-sinoatga to'la ushbu sohaga qanday qiziqib qolgani haqida olimning o'zi bunday hikoya qiladi:

— Insonni doim qiziqishlari boshqarib keladi. Mening tarixga qiziqishim hayotimni qaysidir ma'noda boshqarib kelgan deb ayt olaman. Umrim tarixni o'rganish, uning zamiridagi sir-sinoatlarni xalqqa yetkazish maqsadida o'tdi. O'tgan umrimdan doim faxrlanib kelaman va sira achinmayman. O'z sohama akademik bo'lganim uchun emas, oldimga qo'ygan maqsadlarimga erishganim uchun!

Namangan viloyati Norin tumanining so'lim Uchtepa qishlog'ida tug'ilib o'sganman. U damlar tumanda maktablar katan, uch-to'rt qishloq bolalari bir joyga qatnab o'qirdi. Men ham to'qqizinchi sinfgacha o'zimizning qishloq maktabida, so'ng o'ninchi sinfni Norinkapa qishlog'ida tugatdim. Aynan mana shu maktabga o'tganim hayotimda katta o'zgarish yasadi. Adabiyroq qilib gapiradigan bo'lsak, hayot yo'limni boshqa yo'lga burib yubordi. Bu maktabga asli toshkentlik Do'st Muhammadov degan domla direktor bo'lib kelgan, u qishloqdagi yagona tarix o'qituvchisi edi. U birinchi darsiga kirishi bilan tarix haqidagi shu paytgacha ibtidoiy fikrlarimni o'zgartirib yubordi. Muallimimiz gapirganda butun sinf suv quyganday jim bo'lar, barcha uning qiziqarli tarixiy hikoyalari quloq tutardi. Ustozning o'z kasbiga muhabbatini ko'rib, tarix faniga qiziqishim oshib ketdi va o'z oldimga tarixchi bo'lgan degan katta maqsad qo'ydim.

Shu mahalgacha men kimyo o'qituvchisi bo'lishni xohlardim, shuning uchun kimyo

mamlakatimiz va Markaziy Osiyo tarixining o'rganilishiga qo'shgan hissasi hamkasblari hamda shogirdlari tomonidan alohida e'tirof etildi.

Shuningdek, Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetida yubiley sanasi va Ahmadali Asqarov ilmiy-ijodiy faoliyatiga 70 yil to'lishi munosabati bilan ilmiy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

— Ahmadali Asqarovning pedagogik faoliyati ham alohida ahamiyatga molik, — deydi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti rektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi Zafar Rahmonov. — Ustoz mamlakatimiz tarixi faniga katta yangiliklar kiritdi va O'zbekiston davlatchiligi tarixi davrini 4 ming yillik deb belgilab berdi. Bu tarix fanida tub burilish hisoblanadi. U oliy o'quv yurtlari uchun 2 ta darslik, 4 ta o'quv qo'llanma, 8 ta o'quv-uslubiy ish, o'rta maktab 5-sinf tarix fani o'qituvchilari uchun qo'llanma tayyorlagan.

Shuningdek, tadbirda olim butun ilmiy faoliyati davomida akademik Ya.G'. G'ulomov arxeologik ilmiy maktabining izchil davomchisi sifatida arxeolog kadrlar tayyorlash ishiga alohida e'tibor berib kelgani, uning shaxsiy tashabbusi bilan qator xorij universitetlarida ko'plab o'zbekistonlik yosh mutaxassislar tahsil olgani mamlakatimiz ilm-fani rivojiga xizmat qilayotgani ta'kidlandi.

Ochig'i, mazkur anjumanda ishtirok etib, bir holat ko'ngillarimizga yorug'lik olib kirdi. Gap shundaki, yosh tadqiqotchilar,



Biz bilan birga yonimizda ushbu zavqli lahzalarni kuzatayotgan ustozimiz, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Ahmadjon Meliboyev tomonidan aytilgan bir gapni, afsuski, hamma ham eshitmadi: — Qarang, Ahmadali aka xuddi to'qson yoshli yigitga o'xshaydi...

Talab — shasht va sur'atni tushirmaslik

2015-yili kitobxonlar e'tiboriga olimning “O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi” asari havola qilingan edi. Birmuncha fursat o'tgach, uning rus tilidagi — “Istoriya

tarixi” kitobi dunyo yuzini ko'rdi. So'ng ma'lumotlarni to'plashda davom etdim. Orada ne-ne qiyinchiliklar, qarshiliklar, og'ir kunlar bo'ldi. Mavzuni davom ettirib, yangi-yangi manbalar topib, ularga asoslanib kitobni yana to'ldirib boraverdim. 2015-yil arafasida kitobni katta olimlarga, safdoshlarimga, mutaxassislarga o'qitdim. Hammaga yoqdi.

Darhaqiqat, asarni mutaxassislar yuqori baholashdi, xalqimiz tomonidan xushnudlik bilan qarshi olindi. 660 sahifadan iborat ushbu monografiya o'zbek xalqi tarixini yanada boyitishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi, kitob so'nggi yillarda O'zbekiston tarixi bo'yicha yaratilgan eng yaxshi asarlar qatoridan o'rın olishi e'tirof etildi. U ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlari, etnografiya, tilshunoslik, O'zbekiston tarixini o'rganayotgan talabalar va professor-o'qituvchilar, shuningdek, O'zbekiston etnosi tarixiga qiziquvchilar uchun tavsiya etilgan.

— Kitob ruschaga tarjima bo'lgach, 2018-yili har ikki tildagisini davlatimiz rahbariga ham sovg'a qildim. U kishi juda xursand bo'ldi, meni tabrikлади, rahmat aytdi. Bir soatga yaqin suhbatlashdik. Muloqotdan yangi g'oyalar oldim, yangi rejalar paydo bo'ldi. Shu o'rinda aytishim kerakki, Prezidentimiz tomonidan biz olimlarga, qolaversa, yosh tadqiqotchilarga ulkan sharoit va imkoniyatlar hozirlab berilgan. Har bir mehnatimiz e'tirof va rag'bat olyapti. Bizdan faqat ishlash, shasht va sur'atni tushirmaslik talab etiladi, xolos, — deydi Ahmadali aka.

“Akademik baribir akademik ekan-da” yoxud ilk tanishuv

Ushbu asar haqida gap ketganda, bir narsa yodimga tushib ketdi. 2018-yil kuz oylari edi, qishloq xo'jaligi texnikasi yo'nalishiga ixtisoslashgan tarmoq jurnalida ishlardim. Qaysidir kuni qo'shni davlatdan hamkasbim, ancha yillik qadrdonim Qayrat Bekmurodov ijtimoiy tarmoq orqali aloqaga chiqib qoldi. “Do'st, bir yordaming kerak. Akademik Asqarov yaqinda “O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi” — “Istoriya proisxojdeniya uzbekskogo naroda” nomli kitob chiqaribdi. Shu kishi bilan bir katta intervyyu tayyorlab bera olasanim?” deb yozibdi u.

Qayrat taniqli jurnalist, o'z yurtida yaxshi nufuzga ega o'zbek tilidagi internet nashr bosh muharriri edi. Bunday iltimosni rad etib bo'larmidi, axir bizning akademik haqida qardosh yurt vakili maqola so'rab

turganida? Qolaversa, o'zim ham “O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi” kitobi muloalasiga chog'lanib yurgan paytlarim edi.

Ahmadali akani topish qiyin bo'lmadi. — Ishxonamga keling yo o'zim boraymi? — dedi qo'ng'iroq qilishdan maqsadimni aytganimdan so'ng. Kamtarlikni qarang: agar “Tahririyatimizga keling” desam, keladigan shashtlari ham bor.

— Yo'g'-ye, domla, o'zim boraman, — deb suhbat uchun vaqtini tayin qildim.

Poytaxtimiz markazidagi universitetning shinam auditoriyalaridan birida u kishi bilan uzoq suhbatlashdik. Faoliyatim davomida turli lavozim, mansab egalari bilan uchrashganman, gaplashganman, ammo akademik bilan ilk yuzma-yuz kelishim edi. Ular men gumon qilgandek noz-firoq, kibr va gerdavayshdan uzoq ekanini o'sha kuni Ahmadali aka misolida ko'rdim. Tasavvurim chil-chil bo'ldi. Birinchi marta yuzma-yuz kelgan bo'lsak-da, xuddi uzoq yillik tanishlar kabi chiqishib ketdik.

— Domla, suhbatimiz qo'shni davlat internet nashrida e'lon qilinadi, har holda xalqaro miqyos. Ularga yuborishimdan avval maqolani bir nazaringizdan o'tkazib berasizmi? — dedim hadiksirab. Nazarimda, hozir u kishi “Albatta, bu jiddiy masala, shungayam aqlingiz yetmaydimi” deya koyivshi kerak edi.

— Yo'q, aytgan gaplarim va fikrlarimni buzmasdan yozsangiz, menga ko'rsatishingiz shart emas, — deya javob berdi akademik qat'iylik bilan.

Chindan ham, Ahmadali Asqarov aytgan, bildirgan fikr-mulohazalarini, savollarimga javoblarini shundoq qog'ozga tushirgan edim, tahrirga ham hojat qolmadi. Ko'nglimdan “Akademik baribir akademik

yoshlardan arxeolog kadrlar tayyorlash, millat taqdirida ayollar tarbiyasining o'rni mavzularida qator dolzarb suhbatlari e'lon qilindi.

Yurtimiz bo'ylab olimning tavallud sanasi nishonlanayotgan ayni kunlarda yana bir xushxabar qanot yozdi. O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik Ahmadali Asqarov davlatimiz rahbari farmoniga ko'ra, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

Mamlakatimizda ilm-fan sohasini rivojlantirish, yurtimizning boy tarixini o'rganish va targ'ib etishga qo'shgan katta hissasi, iqtidorli olimlarni tayyorlashdagi ibratli faoliyati uchun berilgan mukofot Fanlar akademiyasida olim tavalludining 90 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiyada tantanali ravishda topshirildi.

Navbatdagi ushbu yuksak e'tirof o'zbek ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan zamonamiz allomasining nafaqat respublikamizdagi minglab, balki dunyoning turli davlatlaridagi o'nlab shogirdlari, hamkasb va safdoshlari ko'ngliga ham yorug'lik olib kirdi.

— Bir olimga e'tibor bo'lsa, shunchalik bo'lar, — deydi yubilyar. — Bugun ilm-



ekan-da” degan o'y o'tib, matnni Qayratga yubordim. O'sha kunning o'zida suhbat e'lon qilindi. Havolasini Ahmadali akaning shogirdiga jo'natib qo'ydim (domla bilan shunday kelishgandik).

Faol va fidoyi muallif

Olim bilan ijodiy hamkorligimiz bugunga qadar davom etib kelmoqda. Aytish mumkinki, Ahmadali Asqarov “Yangi O'zbekiston” gazetasi tashkil topgan vaqtdan buyon eng faol va fidoyi mualliflarimizdan. Xususan, o'tgan vaqt mobaynida nashrimiz sahifalarida otog'li olimning “Ilmiy g'oyalar qanday paydo bo'ladi?”, “Ustoz Yahyo G'ulomov hayoti va faoliyati”, “O'zbekiston — intellektual kuchlar vatani” kabi o'nlab maqolalari, xalqaro aloqalarni rivojlantirishda xalq diplomatiyasining ahamiyati, mahalliy

fan kishilari, hamkasblarim, tadqiqotchilar, yosh izlanuvchilar davlat rahbarining doimiy e'tiborida ekani bizga g'ayrat va shijoat baxsh etadi. Yurtimiz ko'plab ulkan allomalar, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan minglab ilm kishilari yashab o'tgan zamin. Kelgusida ham yoshlarimiz orasidan ularning munosib davomchilari yetishib chiqishiga ishonchimiz komil. Chunki buning uchun yangi O'zbekistonda asos, sharoit va imkoniyatlar yetarli.

Ahmadali Asqarov, qolaversa, boshqa fan zahmatkashlarining bu kabi mehnatlari e'tirof etilishi yoshlar uchun ibrat maktabi bo'lib, ularni ilimga qiziqirish, izlanishga undash hamda ilm ahliga hurmat va e'tiborni kuchaytirishi shubhasiz.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Shu mahalgacha men kimyo o'qituvchisi bo'lishni xohlardim, shuning uchun kimyo darslarida faol qatnashar, hatto qabristonlardagi bosh chanoqlarni o'rganishda fan o'qituvchisiga yordam ham berardim. Ammo tarix o'qituvchisining sehri va tarbiyasi meni umuman boshqa sohaga burib yubordi. Bir o'qituvchining ta'siri bola tarbiyasida qanchalik muhim ekanini shundan ham bilsak bo'ladi.

darslarida faol qatnashar, hatto qabristonlardagi bosh chanoqlarni o'rganishda fan o'qituvchisiga yordam ham berardim. Ammo tarix o'qituvchisining sehri va tarbiyasi meni umuman boshqa sohaga burib yubordi. Bir o'qituvchining ta'siri bola tarbiyasida qanchalik muhim ekanini shundan ham bilsak bo'ladi.

“To'qson yoshli yigit”

Olim tavalludining 90 yilligiga bag'ishlab Fanlar akademiyasida o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiyada akademikning arxeologiya fanidagi beqiyos xizmatlari,

yurtimizdagi ta'lim maskanlarida faoliyat yuritayotgan ustozlar, ta'lim muassasalari rahbarlaridan iborat anjuman mehmnlari, qolaversa, mezb-on universitetning ko'p sonli talaba yigit-qizlari bir olib-biri qo'yib, Ahmadali aka bilan suratga tushishga oshiqardi.

Bunday manzara ishtirokchisi taniqli qo'shiqchi, aktyor yoki sportchi bo'lishiga ko'zlarimiz o'rganib qolgan ekan shekilli, jarayonni uzoq tomosha qilib zavqlandik. Demak, haqiqiy ilm zahmatini chekkan, fidoyi mehnat qilgan olim-pedagoglar ham atrofdagilar, ayniqsa, yoshlar uchun “yulduz” bo'la olar ekan.

proisxojdeniya uzbekskogo naroda” kitobi ham keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Mashaqqatli va katta mehnat hamda izlanishlar samarasi bo'lgan asarda asosan o'zbek xalqining millat sifatida shakllanish jarayoni, milliy mentalitet tushunchasi va uning o'ziga xosliklari tadqiq qilingan, boy moddiy, madaniy va yozma manbalarning chuqur ilmiy tahlili berilgan.

Muallif kitobning yozilish tarixi, unda bayon etilgan yangicha qarashlar haqida bunday deydi:

— Arxeolog sifatida o'zbek xalqining kelib chiqish tarixi bilan 35-40 yildan beri shug'ullanib kelaman. Kitob shu davrdagi arxeologik izlanishlar, topilmalarim, ilmiy-ijodiy mehnatlarim mahsulidir. Asar o'zbek xalqi etnogenezi, etnik va millat bo'lib shakllanish tarixiga bag'ishlangan, unda xalqimizning yaqin 4 ming yillik tarixi arxeologik, antropologik, etnografik, lingvistik, tarixiy toponimika va qadimgi yozma manbalar ma'lumotlarining ilmiy tahlili asosida bayon etilgan. Kitobning yozilishi 2006-yilda boshlangan. Dastlab “O'zbek xalqining etnogenezi va etnik